

DINIY MATNLAR KORPUSI UCHUN IZOHTALAB SO‘ZLARNI SEMANTIK TAVSIFLASH USULLARI

Manzura Abjalova Abdurashetovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor v/b.

abjalova.manzura@gmail.com +99891-333-86-55

ORCID: 0000-0002-1927-2669

Fayiza Tursunboyeva Abdurahmat qizi

Tadqiqotchi

fayizaturunboyeva@gmail.com +99890-303-13-99

ORCID: 0009-0003-4266-0541

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17497264>

Annotatsiya. Diniy matnlar korpusi qayta ishlangan diniy matnlardan iborat tizim hisoblanib, uning yaratilishi diniy matn mazmunini tushunish, avtomatik semantik tahlil, mashina tarjimasini amalga oshirish kabi masalalar ishini takomillashtirishga omil bo‘ladi.

Shuningdek, qidiruv tizimlari va tarjimon tizimlarida diniy matnlar bilan bog‘liq so‘rov va tarjima sifatining oshirilishi, katta ma‘lumotlar bazasining takomillashuviga erishiladi.

Leksikografiya, ontologiya kabi tadqiqotlarning samarali bo‘lishiga obyekt bo‘la oladi.

Maqolada diniy matnlar korpusi uchun islomshunos olim Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning “Sahihul Buxoriy” 1-juz (2019) nashri asosida o‘rganilgan 428 ta lug‘aviy birlik tadqiqining orasidan semantik maydon, semantik guruhlar ko‘rsatilib, mazkur lug‘aviy birliklarning semantik teglanishi ochib berilgan. Shuningdek, maqolada diniy matnlarda eng ko‘p uchraydigan so‘zlardan “Kitob” va “Hadis” lug‘aviy birliklari korpus lingvistikasining mavzuiy guurhlashtirish, semantik teglash, kalit so‘zlar va so‘z birikmlari asosida tahlil qilish metodlariga tayangan holda tadqiq qilindi. Tadqiqot natijasida jami jami 17 ta mavzuiy guruhlar shakllantirildi. Ushbu tadqiqotda tahlil qilingan semantik muammolar va semantik tavsiflash metodlari korpus linivistikasiga doir tahlill va metodlogiyalarda muhim omil hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: Korpus lingvistikasi, semantika, semantik tavsif, semantik tavsiflash metodlari, chastota, teglash, diniy matnlar, semantik munosabat, funksionimiya, hadis, kitob

Abstract. A corpus of religious texts is a system of processed religious texts, and its creation will be a factor in improving the work on issues such as understanding the content of religious texts, automatic semantic analysis, and machine translation. It will also improve the quality of queries and translations related to religious texts in search engines and translation systems and improve the large database. It can be an object for effective research such as lexicography and ontology. The article shows the semantic field and semantic groups among the 428 lexical units studied for the corpus of religious texts based on the publication of the Islamic scholar Muhammad Sadiq Muhammad Yusuf's "Sahihul Bukhari" 1-juz (2019) and reveals the semantic labeling of these lexical units. Also, the article studies the lexical units “Book” and “Hadith”, which are the most frequently occurring words in religious texts, based on thematic grouping, semantic tagging, and analysis based on keywords and word combinations. As a result of the study, a total of 17 thematic groups were formed. The semantic problems and semantic description methods analyzed in this study are the most important factor in corpus linguistics analysis and methodologies.

Key words: Corpus linguistics, semantics, semantic description, semantic description methods, frequency, tagging, religious texts, semantic relation, functoriality

I. Kirish

Tilning shakllanishi va rivojlanishida jamiyatning o'zini beqiyos, xususan, insoniyat bilan chambarchas bog'liq bo'lgan dinning ta'sirini alohida e'tirof etmasdan iloj yo'q. Tabiiy tillarning aksarining negizida bu ta'sirni topish mumkin. Jumladan, o'zbek tili ham bundan mustasno emas.

Yurtimizda yetishib chiqqan islom dinining eng yirik olimlari Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy [1] kabi islomiy bilimlar ulamolarining asarlari tilimiz rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan va bo'lib kelmoqda.

Til korpuslari semantik tahlillar uchun boy ma'lumotlar manbai sanalib, shu sababdan ham bugungi kunda semantik nazariyaning chuqur va keng tadqiq qilinishi boshlandi [2]. Semantik tavsiflash ayni to'rtinchi sanoat inqilobi davrida [3] juda muhim elementlardan hisoblanadi. Bu orqali qidiruv tizimlari, web xizmatlardan foydalanishni avtomatik tahlil qilgan holda integratsiyani osonlashtirish mumkin [4].

Shuningdek, til korpuslari mashina tarjimai, til muhandisligi, axborot qidirish, leksik tahlil, leksikografiya kabi lingvistik tadqiqotlarga ham boy manba bo'lib xizmat qiladi [5]. Aynan semantik tadqiqotlar jamlangan maqsadli til korpuslari esa raqamli lingvistika rivojida alohida qiymatga ega (masalan: SemOntoCor, Alisher Navoiy g'azallarining semantik bazasi).

Har bir tilning leksik-semantik tizimida u yoki bu denotat (voqelikdagi aynan bir narsa) nomining alohida-alohida lug'aviy birliklar yordamida ifodalanishi mazkur so'zlar ifodalab kelgan denotatlarning shu xalqning hayoti, turmush tarzi, xo'jaligi, ijtimoiy ishlab chiqarishda qanday ahamiyatga ega ekanligi bilan belgilanadi [6]. Xuddi shuningdek, diniy matnlarda uchraydigan o'ziga xos denotatlar ham lug'aviy ma'nosidan tashqari turli kontekstlarda turli mazmunga ega bo'ladi. Va bu mazmunlarda nafaqat xalqning, balki shu mazmunga asos bo'lgan dinning ta'sirini ham chuqur ifodalaydi.

Markaziy Osiyo xalqlari, jumladan, O'zbekistonda islom dini qariyb 15 asrlik tarixga ega bo'lib, arab tilining o'troq aholi leksikasidagi o'zini juda katta. Yer yuzida islom dini keng tarqalganligiga qaramasdan, arab tili dunyosida korpus lingvistikasi ingliz tili korpus lingvistikasi darajasida taraqqiy etmayapti. Buning sabablari sifatida lingvist olim O. Ismoil arab tilining o'ziga xos tomonlari – flektivligi, bosh harflarning mavjud emasligi, unilarning harf bilan ifoda etilmasligi, tilning morfologik xususiyatlari kabilarni qayd etadi [7].

Shuningdek, diniy matnlarda uchraydigan izohtalab lug'aviy birliklarni semantik tavsiflash ehtiyoji ushbu so'zlarning asrlar davomida iste'moldan chiqishi, xos doiralarda o'rganilishi, shuningdek, manbalar bilan birgalikda lingvistik tadqiqotlar yetishmasligi ham rivojlanishni ortga surmoqda.

Mazkur bo'shliqni to'ldirish uchun bugungi kunda diniy matnlardagi izohtalab so'zlarning kontekstual-semantik izohini hech bir lug'atsiz joriy vaqtda, tezkor (interaktiv tarzda) bilish va shunday so'zning diniy matndagi ma'nosini anglashi uchun diniy matnlar korpusi va uning semantik tavsiflar bazasi muhim sanaladi. Diniy matnlarda, xususan, hadislarda shunday so'zlar borki, ularni bugungi kun o'quvchisi maxsus lug'atlarsiz tushunishga qiynaladi.

Ular tadqiqotimizda izohtalab so'z birikmali termini bilan ifodalandi. Ushbu maqola diniy matnlardagi izohtalab lug'aviy birliklarga semantik tavsif berish metodlarini ochib berishga qaratilgan.

Maqola mohiyatini ochishda islomiy bilimlar olimi shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning "Sahihul Buxoriy", 1-juz asari asos qilib olindi.

Shuningdek maqolada kalit so'zlar va so'z birikmalar tahlili, mavzuiy modellash, semantik teglash kabi metodlardan foydalangan holda natijalar taqdim qilindi.

II. Adabiyotlar tahlili

Korpus lingvistikasida semantik tadqiqotlar endi rivojlanayotganligi bois bu doirada manbalar kamyob hisoblanadi. Ammo bu yo'q degani emas. Jumladan kognitiv lingvistika nazariyasini o'rgangan professor Glynn D. semantik tadqiqotlarda til korpuslardan foydalanishning ahamiyati va texnikalarini tahlil qilgan bo'lib, korpusga asoslangan holda semantik tadqiqotlar uchun metodologik yonashuv va texnikalar ishlab chiqdi. Glynn D korpusda semantik metodologik yondashuvning 2 xil turini taqdim etadi.

Shuningdek, bu borada tilshunos olimlar Stefanowitsch and Griesning har ikki turning alohida xususiyatlarini saqlab qolgan holda umumlashtirish mumkinligi nazariyasini qo'shimcha qilib o'tish lozim.

Korpus lingvistikasida teologik matnlardagi izohtalab so'zlarni semantik tavsiflash uchun kontekstning zamoni va makoniga, matnga singib ketgan qadriyatlarga asoslanish o'rinlidir. Bu borada tilshunos olimlardan Muhammad Alqarni aynan diniy matnlarda kalit so'zlar yoki so'z birikmalari asosida semantik izoh berishni amaliy tadqiq qilgan bo'lib, u o'z maqolasida ushbu metodni Qur'oni karim matnlarida qo'llash borasidagi qiyinchiliklariga to'xtalib o'tgan.

Olimning ta'kidlashicha, Qur'oni karimning 6236 oyatida kelgan so'zlar va so'z birikmalari har biri alohida semantik tavsiflashni talab qiladi. Ayniqsa, bu jarayon kompyuter lingvistikasida alohida qiymatga ega [8].

Shuningdek, Altmeyer, S., Klein, C kabi olimlar diniy so'zlar orasidagi nozik semantik va grammatik farqlarni o'rgangan holda so'zlarni semantik maydon va shakl jihatidan tavsiflash metodini o'z ilmiy nazariyalarida ifodalagan [9].


Lingvistik matnlarda, xususan, diniy manbalarda mavzulashtirish uslubi ko'plab ilmiy muammolarga amaliy yechim bo'la oladi. Bu borada Mahit Nandan A.D, Ishan Godbole, Pranav M Kapparad, and Shrutilipi Bhattacharjee kabi olimlar Qur'oni karim, Bibliya va Gita kabi ilohiy kitoblar doirasida qiyosiy tahlildan foydalangan holda mavzuiy modellashirish uslubini muvaffaqiyatli isbotgan [10].

Bundan tashqari, diniy matnlar doirasida semantik tadqiqot olib borish jarayonida semantik annotatsiya va semantik teglash eng muhim usullardan biri sanaladi. Alohida ta'kidlash lozimki, bir dinning turli makonlardagi zohiriy o'xshash so'z yoki so'z birikmalari turli hududlarda boshqa-boshqa mazmunga ega bo'lishi mumkin.

Xuddi shu nazariyani ilgari surgan olimlar Altmeyer, S., Klein, C. Amerika va Germaniya xalqlarining leksikasidagi bir so'zning ikki hududga xos nozik semantik ma'nolarini tadqiq qilgan [11].

Ayni shu metodni islomiy matnlarda ham qo'llash mumkin. Islomiy lug'aviy birliklar zamon va makonda shu jamiyatga xos bo'lgan o'ziga xos urf-odatlar, qadriyatlar, zamonlar osha duch kelgan leksik va semantik o'zgarishlar tufayli alohida semantik tavsifni talab qiladi.

Shu o'rinda, arab tilining tarixiy semantikasi uchun korpus lingvistik vositalar mavzusi doirasida ilmiy ishlar olib borgan olim Ismail. O. arab tilining ayrim so'zlari semantikasi davrlar mobaynida semantik o'zgarishga uchragani va ayni zamonda taqazo qilayotgan ma'nolarini korpus lingvistikasida ifodalash uslublarini tadqiq qilgan. [12]. Quyidagi 1-chizmada olimlar tadqiq qilgan semantik tavsiflash metodlari interaktiv tarzda taqim etildi.



1-chizma. Korpus lingvistikasida matnlarni semantik tavsiflash metodlari

III. Metodlar

Ushbu tadqiqotda semantik tavsiflash metodlaridan kalit soʻzlar va soʻz birikmalar tahlili, mavzuiy modellashdirish, semantik teglash usullariga tayangan holda korpus lingvistikasida diniy matnlarni semantik tavsiflashning usullari tadqiq qilindi. Tahlil qilingan lugʻaviy birliklarning semantik maydoni, chastotasi aniqlandi. Izohtalab lugʻaviy birliklarga kontekstual semantik izoh taqdim qilindi.

IV. Muhokama va natijalar

Diniy matnlarni oʻqib tushunish, notanish lugʻaviy birliklarni kontekstga koʻra mohiyatan toʻgʻri tushunishda filologik korpuslarni yaratish muhimdir. Bu yoʻlda eng muhim diniy manbalardan biri “Sahihul Buxoriy” va undagi izohtalab soʻzlarni semantik teglash va tavsiflash muhim vazifalardan sanaladi. Tadqiqot davomida asarda aniqlangan 428 ta izohtalab lugʻaviy birliklar semantik guruhga ajratilib, maxsus kodlar bilan teglandi.

Semantic field tagging	Semantic lexical units
t:namesofAllah	Alloh, Robbul olamiyn, Zot Robb, Iloh, Allah azz oza jallo, Allah taolo
t:namesofholyQuran	Qur'on, Qur'oni karim, Kalom, Zikr, Kitab
t:surahs	Nohil, Niso, Hashr, Nojmi, Nur
t:namesofprophecy	Nabiy, Rasul, Rosululloh
t:salavat	Alayhissalom, salotu salavat, solallohu alayhi uasallom
t:duo	Roziyallohu anhu, roziyallohu anhum, rohimgulloh
t:booknames	"Sahihul Buxoriy", "Sahihul Muslim", "Sunani Abu Dauud", "Jamei Termiziy", "Mujtabai Nasoiy", "Sunani Ibn Moja", "Muavvotai Malik", "Sunani Darimiy", "Sahihul Ibn Hibbon", "Oltin Silsilah"
t:proficents	Imom, muftiy, muhaddis, hofiz
t:typesofamal	Harom, vojib
t:partsofQuran	Basmala, oyat, sura

1-jadval. Izohtalab soʻzlarning semantik teglanishi

Teglash davomida “Sahihul Buxoriy” 1-juzida oʻrganilgan izohtalab lugʻaviy birliklar orasidan 10 ta leksik-semantik guruh ajratilib, teglandi. 1-jadvalda ilova qilinganidek, **t:namesofAllah** tegida 428 ta lugʻaviy birlik orasidan aniqlangan Alloh soʻzining 7 ta maʼnodoshlari oʻz ifodasini topdi. Islom dinining muqaddas kitobi – Qurʼonning turli nomlari esa **t:namesofHolyQuran** tegiga joylandi. Shuningdek, asarning oʻrganilgan qismida Qurʼoni karimning 5 ta suralari nomlari ham oʻz ifodasini topgan boʻlib, bu nomlar: *Nahl*, *Niso*, *Hashr*, *Najm*, *Nur* kabi sura nomlari **t:surahs** tegiga birlashtirildi. *Nabiy*, *Rasul*, *Rasulloh* kabi Islom dinining soʻnggi paygʻambarini ifodalagan lugʻaviy birliklar **t:namesofprophecy** tegiga belgilandi. Shuningdek, islom dinida soʻnggi paygʻambarga salavot aytish ibodat darajasida boʻlib, salavotning turli 3 nomi ham bir guruhga jamlanib **t:salavah** tegiga jamlandi. Diniy matnlarda uchraydigan oʻziga xosliklardan biri dinning yirik ulamolari va obroʻli shaxslarining ismlariga duo qoʻshilishidir. Roziyallohu anhu (m), rohimahulloh kabi ismga qoʻshiluvchi duolar **t:duo** tarzida teglandi. Izohtalab soʻzlar oʻrganilishi davomida arabiy lugʻaviy birliklar bilan ifoda etilgan asar nomlariga ham duch kelindi. Bu kabi lugʻaviy birliklar 10 tani tashkil qilib **t:booknames** tegi ostida shakllantirildi. Qoʻshimcha tarzda shuni aytish lozimki, dinning bir qancha sohalarida va koʻnikmalarda mutaxassis va bilim va tajribasi yuqori insonlar ham alohida nomlar bilan atalgan. Bu kabi nomlar baʼzi oʻrinlarda Daraja, baʼzi kontekstlarda mutaxassislikni ham bildirishi mumkin. *Imom*, *muftiy*, *muhaddis*, *hofiz* kabi lugʻaviy birliklar ham **t:proficients** tegiga birlashtirildi. Oʻrganilgan izohtalab lugʻaviy birliklar orasidan *harom*, *vojib* kabi amal turlari **t:typesofamal** tegiga joylandi. Islom dinining muqaddas kitobi – Qurʼoni karimning boʻlimlari, qismlarini ifodalashda ishlatilgan *Basmala*, *oyat*, *sura* kabi lugʻaviy birliklar **t:partsofQuran** tegi ostida birlashtirildi.

Glynn D. fikricha, korpus lingvistikasida kalit soʻzlar, soʻz birikmalarini aniqlash metodi lugʻaviy birikmalarining kontekstual maʼnosini tadqiq qilishni osonlashtiradi. Kalit soʻz sifatida quyidagi 1-jadvalda koʻrsatilganidek, “Kitob” denotati tanlab olindi. “Sahihul Buxoriy”, 1-juzida ushbu “kitob” soʻzi bilan aloqador 52 ta lugʻaviy birikmalar kelib chiqdi. Tahlilga koʻra, “Kitob” lugʻaviy birligi 7 xil oʻrinda turli kontekstual semantik maʼno ifoda kasb etishi aniqlandi. “Sahihul Buxoriy” 1-juzida tartib bilan mavzulashtirilgan boʻlimlar nomi “kitob” deya ifodalangan. Masalan, quyidagi 2-chizmada “Kitob” soʻning kontekstual maʼnosi va ushbu soʻzning semantik tavsiflanishi interaktiv koʻrsatildi.

ILM KITOBİ - ilm
mavzusidagi hadislar
boʻlimi

3. ILM KITOBİ

III BOB
“ILMNING FAZILATI” haqida

Allah taoloning soʻzi: «Alloh sizlardan iymon keltirganlarni, xususan, ilm berilganlarni darajalarga koʻtarur. Alloh nima amal qilayotganingizdan xabardordir». U zot azza va jalloning soʻzi: «Rabbim, ilmimni ziyoda qilgin»


2-chizma. “Kitob” lugʻaviy birligining kontekstga koʻra interaktiv tarzda semantik tavsiflanishi

Quyidagi jadvalda esa “Kitob” soʻzining aynan hadis matni va izohlaridagi maʼnolarining 6 oʻrinda kelishi kontekstual tahlil qilinib, semantik tavsif berildi. Shuningdek, “Kitob” soʻzining chastotasi ham tadqiq qilindi.

Number of hadis	Word	The basis- explanation meaning	Verses	frequency
7	Ahli kitoblari	Ahli kitobga - Biror paygʻambarga va uning Alloh taʼodan keltingan kitobiga, oʻlgandan keyin tinilish va oxirat hayotiga ishonadiganlar nasraniy va yahudiylarga aytiladi	"Ayt: "Ey ahli kitoblari! Biz bilan sizning oʻrtamizdagi barobar soʻzga keling: Allohdon oʻziga ibodat qilmoqlik. Unga hech narsani sherik qilmaylik va Allohni qoʻyib, bir-birimizni Rabb qilib olmaylik". Agar yuz oʻgʻirsaʼar: "Guveh boʻlingʻar, biz musulmonmiz", deb aytinglar"	6
75	Kitobni	Kitobi - Qurʼoni karimni	bn Abbas roziallohu anhumoon rivoyat qilindi: "Rosululloh sollallohu alayhi wasallam meni bagʻinlariga bosib, "Allohim, bunga Kitobni oʻngat", dedilar".	18
103	Hisob-kitob qʻilinsa	Hisob-kitob - qayamat kuni yaxshi-yomon amallarimiz oʻlchansa	Ibn Abu Muʼayyaka shunday soʻzlab berdi: "Nabiy sollallohu alayhi wasallamning zavajlari Oisha roziallohu anha oʻzi bilimgan biron narsani eshitsa, uni yaxshi bilib olmaguncha qoʻta-qoʻta soʻrayverardi. Nabiy sollallohu alayhi wasallam: "Kin hisob-kitob qilinsa, azoblanadi", dedilar. Oisha roziallohu anha aytdi: "Men: "Axir Alloh taalo: "Tazda, osongina hisob qilinur" demiganini?" dedim. Shunda u zat "Bu bir arz", xolos. Biroq kin (qattiq) hisob-kitobga tartiʼsa, halok boʻladi", dedilork.	3
180	Fiqh kitoblari	Fiqh kitoblari - fiqhga dair asarlar	Hadising izoh qismida keʻgan matn Shu oʻrinda umumiy bir qoidani eslatib oʻtmoqchimiz. Bu va bunga oʻxshash masalalardagi tafvut mazhablar orasidagi tabiiy xilma-xilik hisoblanadi. Bu istif Alloh taoloning Oʻzida qilgan va ummat uchun rahmat boʻlgan ixtilofdir. Bunday masalar bilan fiqh kitoblari orqali bataʼsil tanishish mumkin.	4
762	Fotihatul kitob	Fotihatul Kitob - Fotiha surasi	Abdulloh ibn Abu Qatada otasi roziallohu anhudan rivoyat qiladi: "Nabiy sollallohu alayhi wasallam peshin va asr namozlarining oldingi ikki rakʻatida "Fotihatul Kitabni va bittadan surani oʻqir edilar. Gohida bizga oyatni eshittirib ham qoʻyar edilar".	6
778	Ummul Kitob	Ummul Kitob - Fotiha surasi	Abdulloh ibn Abu Qatada otasi roziallohu anhudan soʻzlab berdi: "Nabiy sollallohu alayhi wasallam peshin va asr namozlarining oldingi ikki rakʻatida Ummul Kitob va u bilan birga biron surani oʻqir edilar. Gohida oyatni bizga eshittirib ham qoʻyar edilar. Birinchi rakʻatni "uzun qilar edilar".	4

2-jadval. "Sahihul Buxoriy" asari asosida "Kitob" lugʻaviy birligining turli kontekstual maʼnolari va metodlar tahlili natijasi

Endi asarda eng koʻp uchraydigan soʻzlardan biri "hadis" soʻzini olib tahlil qilib koʻrsak. 1-juzda "Hadis" denotati 761 oʻrinda ishlatilgan boʻlib, ushbu lugʻaviy birlikni kontekstga koʻra semantik maydonlarini aniqlab, mavzuyimizning asl maqsadi boʻlgan semantik tavsiflashning ahamiyatini tahlil qilaniadi. Quyida esa ayni shu birlikni mavzuiy modellashtirish metodi ostida tadqiq qilib, ilmiy muammo yechimi ifodalanadi. Asarda "hadis" soʻzining maʼnodoshlari (xabar, rivoyat, sunnat, asar) ham oʻrin olgan. Bu soʻzlar zohiran izohtalab soʻzdek tuyulmasa-da, ammo arab tilining nozik jihatlari sabab mazkur maʼnodoshlikni kontekstual ochib berishning ahamiyati muhim. Quyidagi chizma orqali bu maʼnodoshlik interaktiv tarzda ochib berilgan.



3-chizma. Izohtalab soʻzlarning interaktiv tarzda semantik tavsiflanishi

Maʼlumki, denotatlarning faoliyatidagi bir xillik yoki oʻzaro oʻxshashlik ularning nomlarini ifodalovchi soʻzlar orasidagi leksik-semantik aloqadorlikka asos boʻladi [13]. Mazkur aloqadorlikni diniy manbalarda, xususan, islomiy manbalarda ifodalash nihoyatda diqqatli ish boʻlib, birgina noʻtoʻgʻri yondashuv mazmunning oʻzgarib ketishiga sabab boʻlishi mumkin. Ayni lugʻaviy birlik “hadis”ni semantik maydon va munosabatini oʻrgangan holda mavzuiy guruhlashtirish metodidan olingan natijalar quyidagi 2-jadvalda ifodasini topdi.

“Sahihul Buxoriy” 1-juz, 2019-yilgi nashrida [14] qoʻllanilgan “hadis” denotatini 761 oʻrinda kontekstga koʻra foydalanishi tadqiq qilinish, “hadis” soʻzi doirasida olib borilgan mavzuiy guruhlashtirish 7 xil semantik maydon teglari asosida kiritildi, leksemalararo munosabat oʻrganildi.

Semantik maydon tegi	Semantik lugʻaviy birliklar	Semantik munosabat turi
t:education	Hadis ilmi, hadisshunoslik, hadis sahasi	Giperanim
t:places	Qurʻon, Qurʻoni karim, Kalam, Zikr, Kitob	Funksionimiya
t:grades	Sahih hadis, zaif hadis, illatli hadis, taqriiy hadis, ahkom hadis, shoʻzz hadis, munkar hadis	Graduonimiya
t:components	Hadis matni, hadis sanadi, hadis bayoni, roviy	Komponent-butun munosabati (partonimiya)
t:booknames	Qirg hadis, Ming bir hadis, hadis kitoblari, hadis toplamlari, hadis adadlari	Gipa-giperonomik
t:practise	Hadis yozib olish, hadis keltirish, hadis izlash, hadis jamlash	Funksionimiya
t:experts	Hadis olimi, hadis hofizi, muhaddis, hadis mashoyixlari, hadis olquvchi, hadis eshituvchi, hadis soʻrovchi, hadis ahllari, hadis himoyachisi	Iyerarxik munosabat

3-jadval. Semantik tavsiflashning mavzuiy guruhlashtirish, semantik teglash metodi va leksim-semantik guruh idodalangan interaktiv jadval

Semantik teg bir xil semantik guruhga mansub soʻz va soʻz birikmalarini birlashtiradi. Foydalanuvchi yoki tadqiqotchining qidiruvda samaradorlikka erishishi uchun ham qidirish filtrida semantik maydon koʻrsatiladi, jarayon esa semantik teglar asosida amalga oshiriladi. Ushbu tadqiqotda “Hadis” lugʻaviy birligi doirasida kelgan soʻzlar 7 ta semantik maydonga ajratildi: **t:education** – “Hadis” soʻzi doirasidagi taʼlimga aloqador soʻzlar (3 ta soʻz), **t:places** – ushbu lugʻaviy birlik doirasidagi joy nomlari (2 ta soʻz), **t:grades** – hadis darajalari (7 ta soʻz), **t:components** – hadisning qismlari, **t:booknames** – hadisga doir kitoblar nomlari, miqdorlari, **t:practice** – hadis ilmiga doir amaliy faoliyatlar, **t:experts** – hadis ilmi mutaxassislari. Diniy matnlarni raqamli texnologiyalar vositasida oʻqishli tarzda taqdim etish uchun grammatik va semantik teglashni oʻrganish va undan amaliyotda foydalanish muhim.

V. Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ushbu maqolada diniy matnlarni semantik tavsiflash metodlari aniqlanib, matnni tushunishni osonlashtiruvchi semantik tavsiflar kontekstual tarzda tadqiq qilinganligi, semantik munosabatlar tahlili va semantik teglash metodi natijalari tadqiq qilindi. Ushbu tadqiqot natijalari orqali qidiruv tizimlari va tarjimon tizimlarida diniy matnlar bilan bogʻliq soʻrov va tarjima sifatining oshirilishi, katta maʼlumotlar bazasining takomillashuviga erishiladi. Leksikografiya, ontologiya doirasidagi tadqiqotlarning samarali boʻlishiga xizmat qiladi.

“Sahihul Buxoriy” 1-juz asarida 428 ta izohtalab soʻz oʻrganildi. Shu lugʻaviy birliklar orasidan 10 ta semantik maydon ajratilib, teglandi. 52 oʻrinda kelgan “Kitob” va 761 oʻrinda kelgan “Hadis” lugʻaviy birliklari doirasida izohtalab soʻzlar tahlil qilinib, kontekstual tarzda qisqa semantik tavsiflar berildi. Natijada bu tavsiflar orqali korpusda diniy matnlarni tushunish osonlashdi. Semantik tavsiflashning ahamiyati ochib berildi.

“Hadis” lugʻaviy birligini tadqiq qilish davomida obyektida kelgan maʼnodoshlari - “xabar”. “rivoyat” denotatlari ham semantik tadqiq qilindi. Denotatlar orasida vujudga kelgan semantik munosabatlar oʻrganildi. Ushbu tadqiqot lingvistik va semantik tadqiqotlar uchun ahamiyatli boʻlib, diniy matnlarda uchrashi mumkin boʻlgan funksionimiya, graduonimiya, partonomiya, iyerarxik munosabat, komponent kabi semantik munosabatlar tahlilli interaktiv tarzda taqdim qilindi. Xulosada bu tahlillar diniy matnlarni semantik oʻrganishning ahamiyati misollar bilan aniqlandi.

Tanlab olingan kalit soʻzlar asosida “Kitob” lugʻaviy birligining kontekstga koʻra 7 xil maʼnosi oʻrganildi. Birliklarning chastotasi aniqlandi, semantik izoh kiritildi. “Sahihul Buxoriy” 1-juzida kelgan “Hadis” soʻzi doirasida kelgan birikmalar 7 xil semantik guruhlariga ajratildi. Teglandi. Semantik munosabat aniqlandi. Natijada foydalanuvchi yoki tadqiqotchining qidiruvda samaradorlikka erishishi uchun ham qidirish filtrida semantik maydon koʻrsatildi. Ushbu tadqiqot tahlillari ontologiya, leksikografiya va semantika doirasidagi ilmiy muammolar yechimiga muhim lingvistik asos boʻlishi aniqlandi. Diniy matnlarda uchraydigan soʻzlarni sharxlash yoki xulosa chiqarib olishdan avval uning maʼnolarini yaxshilab oʻrganish zarurati va diniy matnlar tarjimai jarayonida bularga ahamiyat berish zaruriyati ochiqlab berildi.

Toʻrtinchi sanoat inqilobi davri korpus lingvistikasini yanada taraqqiy etishini talab qilmoqda. Ushbu maqolada amaliy tadqiq qilingan korpus lingvistikasida diniy matnlardagi izohtalab soʻzlarni semantik tavsiflashning tahlil qilingan 3 xil metodlari kelgusi semantik, lingvistik, ontologik tadqiqotlar uchun qiymatli manba boʻla oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. THE ROLE OF CENTRAL ASIAN SCHOLARS IN ISLAMIC CIVILIZATION, The Light of Islam, 2022, GANIYEV AVAZBEK OYBEKOVICH
2. Techniques and tools. Corpus methods and statistics for semantics Publisher: John Benjamins Editors: Dylan Glynn, Justyna Robinson
3. The Fourth Industrial Revolution: A Historical and Conceptual Review July 2024 [Journal of Economics and Administrative Sciences](#) 30 (141):154-172
4. SDWS: Semantic Description of Web Services. Maricela Claudia Bravo, José Rodríguez, Jorge Pascual International Journal of Web Services Research 2014
5. Al-Sulaiti, Latifa, and Eric Atwell. (2006). ‘The design of a corpus of contemporary Arabic’. International Journal of Corpus Linguistics, 11(2), 135-171.
6. R. Safarova. Leksik-semantik munosabatning turlari. Toshkent “Oʻqituvchi” 1996. 10-b
7. [Corpus Linguistic Tools for Historical Semantics in Arabic](#) Ismail O. International Journal of Arabic-English Studies (2014)
8. Embedding Search for Quranic Texts based on Large Language Models Mohammed Alqarni, 2024
9. Altmeyer, S., Klein, C. (2016). “Spirituality” and “Religion”—Corpus Analysis of Subjective Definitions in the Questionnaire. In: Streib, H., Hood, Jr., R. (eds) Semantics

- and Psychology of Spirituality. Springer, Cham. https://doi.org/10.1007/978-3-319-21245-6_8
10. Mahit Nandan A D, Ishan Godbole, Pranav M Kapparad, and Shrutilipi Bhattacharjee. 2025. [Comparative Analysis of Religious Texts: NLP Approaches to the Bible, Quran, and Bhagavad Gita](#). In *Proceedings of the New Horizons in Computational Linguistics for Religious Texts*, pages 1–10, Abu Dhabi, UAE. Association for Computational Linguistics.
 11. Comparative Analysis of Religious Texts: NLP Approaches to the Bible, Quran, and Bhagavad Gita ADMahitNandan, Ishan Godbole, Pranav Kapparad, Dr. Shrutilipi Bhattacharje
 12. Corpus Linguistic Tools for Historical Semantics in Arabic, Omaila Ismail, Sane Yagi and Bassam Hammo, 2014
 13. R. Safarova. Leksik-semantik munosabatning turlari. Toshkent “O‘qituvchi” 1996. 10-b
 14. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, Sahihul Buxoriy, 1-juz, – Toshkent: Hilol-nashr, 2019